

ZAMONAVIY METODLARDAN TABIIY GEOGRAFIYA DARSLARIDA FOYDALANISH.

Toshboltayev Boybo'ri Eshmurot o'g'li

*Termiz davlat universiteti
Termiz, O'zbekiston
4-kurs bakalavriat talabasi
Termiz davlat universiteti
Termiz, O'zbekiston
boyburitoshboltayev@gmail.com.*

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

*Received: 07.06.2026
Revised: 08.06.2026
Accepted: 09.06.2026*

KALIT SO'ZLAR:

*Tabiiy geografiya,
Zamonaviy metodlar,
AKT, Klaster, Aqliy
hujum, BBB metodlari,,*

Ushbu maqoladatabiiy geografiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogic metodlardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Tabiiy geografiya darslarida interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. Raqamli ta'lim vositalari hamda innovatsion yondashuvlardan foydalanish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Maqolada zamonaviy metodlarning afzalliklari, ularni dars jarayoniga tadbiq etish usullari va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

KIRISH.

Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda ularni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish davlat siyosatiningf ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu jarayonda geografiya fanini, ayniqsa tabiiy geografiyani zamonaviy metodlar asosida o'qitish alohida ahamiyat kasb etadi.

Tabiiy geografiya Yerning tabiiy komponentlari-relyef. Iqlim, suvlari, tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosining o'zaro bog'liqligini o'rganuvchi fan hisoblanadi. Ushbu fan o'quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirish, tabiatga

ehtiyotkorona munosabatni rivojlantirish hamda geografik tafakkurni tarkib toptirishga xizmat qiladi.

An'anaviy darslarda o'quvchilar asosan tayyor bilimlarni qabul qiluvchi bo'lsa, zamonaviy pedagogik metodlar ularni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Interfaol metodlar orqali o'quvchilar mustaqil fikrlaydi. Muammolarni tahlil qiladi, guruhlarda ishlaydi hamda o'z fikrini asoslab bera oladi. Bu esa ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Hozirgi zamon fan va texnikasi jadal su'ratda rivojlanayotgan zamonaviy axborot texnologiyalarining salmog'i keskin oshayotgan bir davrda o'qituvchi pedagogik mahoratini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun o'qituvchi faqat o'z fani bo'yicha emas, balki o'z faniga yaqin bo'lgan sohalardagi yangiliklarni ham bilish talab etiladi.

Hozirgi kundagi muhim vazifalardan biri bolalarni fanga qiziqtirish, ularning e'tiborini darsga jalb qila olish, dunyo qarashini kengaytirish, fikrlash darajasini yaxshilash uchun turli xil metodlar mavjud yoki ulardan foydalanishimi yoki qo'llashimiz zarur. Yana shuni aytish kerakki metodlardan to'g'ri va samarali foydalanish bolalarda fanga bo'lgan mehr, muhabbat va qiziqishni shakllantira oladi. Hozirda ta'lim jarayonida o'nlab balki yuzlab metodlarning turlari mavjud ularga misol qilib aytishimiz mumkin. Ko'rgazmali metodlar, amaliy metodlar, Klaster metodlar, baliq skleti metodlari, so'z orqali ifodalanadigan metodlar mavjud, namunali bayon qilish metodi, reproduktiv metodi, tushuntirish ish rasmlar metodi, tadqiqot metodi, qisman izlanish metodi, B.B.B metodi, qor bo'ron metodi, dumaloq stol metodi, kabi metodlarning bir qancha turlari mavjud.

Bolalarni dunyo qarashini rivojlantirish, fikrlash darajasini kengaytirish va tafakkur qila olishini shakllantirish uchun o'z navbatida amaliy va tajribiy metodlarni ahamiyati katta. Hozirgi kunda maktablarimizda tashkil qilingan Tabiiy fanlarni o'qitishda biz ko'plab tabiiy amaliy va tajribiy metodlardan foydalanamiz. Tabiiy fanlarda o'qitishda turli xil metodlardan foydalanish o'quvchilarda hozirgi zamon talablari, ta'lim sohasidagi jahon andozalari va milliy rivojlanish andozalariga mos keladigan geografik madaniyatni yangi geografik dunyo qarashni, tafakkur va bilimlarni, ularni hayotda va kasbiy faoliyatda qo'llay olishni ko'nikma va malakalarini (komponentlikni) shakllantirishdan iboratdir.

O'quvchilarda Yer sayyorasi va uning hududiy qismlari haqida yaxlit bilimlarni shakllantirish, tabiiy, ijtimoiy iqtisodiy hamda ekologik hodisa va jarayonlarni tushunishi uchun ikmiy-metodologik zamin yaratish, tabiatdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish borasida hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish, ularni taxlil

fikrlashga o'rgatish, olgan nazariy bilimlari asosida amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan amaliy metodlarnin g bir guruhi ishlab chiqilgan.

Tabiiy geografiyani o'qitishda quyidagi guruh metodlarini kirgizishimiz lozim:

- Tadqiqot metodlari;
- Kuzatish metodlari;
- Amaliy metodlar;
- Tajribiy metodlar;

Amaliy yoki tajriba metodlardan foydalaqnish va u metodni to'g'ri yo'naltira olish o'quvchida tabiatga mehr-muhabbat, uni asrash avaylash nafaqat tabiiy boyliklari bilan bir qatorda tabiatni asrash kabi ko'nikmalarni shakllantiradi.

Amaliy metodlar bu darsda olgan nazariy bilimlarini amaliyotda o'qtuvchi bilan birgalikda qo'llab ko'rishdir. Bu jarayonda o'quvchilarda

- Yerning o'z o'qi va Quyosh atrofidagi harakat mohiyatini, ularning tabiatga ahamiyatini, quyosh sharqdan chiqib g'arbga botishi qaysi tomon shimol qaysi tomon janub ekanligi kabi amaliy metodlar qo'llash o'quvchilarda ko'nikma va tushuncha hosil qiladi.
- Tabiiy hodisalar va jarayonlarni, tun va kun, yil va fasllar almashishini kuzatish.
- Globus va geografik kartalar, xaritalar bilan ishlash daraja to'ri, meridianlar va parallellarning mohiyatini tushunish, geografik joylar geografik obyektlarning joylashgan o'rnini toppish, izlash, ko'rish, aniqlash o'quvchilarda hududlarning geografik o'rinlarini chuqur eslab qolishga imkon beradi.
- O'qtuvchi bilan birgalikda dala maydonida ufq tomonlarini aniqlash, kun va tunga qarab oryentir olish o'quvchilarda fanga qiziqishini shakllantiradi.
- Kuzatuvchi o'qtuvchi bilan birgalikda kichik suv havzalarida o'lchash ishlarini olib boorish yoki kichik suv havzalari founasini o'rganish.
- Termometr yoki boshqa havo bosim asboblari yordamida iqlimning quruq yoki issiqligi, harorat darajasini o'rganish iqlimning insonga qanday ta'siri borligini tushuntirish.
- Foydali qazilma turlari ularning shakllari bilan ham qisqacha tanishish.

Tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarini kuzatish va tahlil qilish kichik davlat hudud viloyat shahar geografiyasini o'rganish tabiati aholisi va xo'jaligi haqida tizimli

bilimlarni hosil qilish kichik-kichik guruh ekskursiyalarni tashkil qilish va uni fan bilan bog'lash, jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning mohiyati va xususiyatlari, sabab oqibatlarini tushuntirish va yechim yo'llari haqida to'g'ri tushuncha hosil qilish, yosh avlodning ekologik madaniyatini, milliy boyliklariga nisbatan ehtiyotkorona ruhda o'stirish o'quvchilarda Vatanga muhabbat, milliy iftihar, fuqarolik mas'uliyatlari ruhida tarbiyalaydi.

Zamonaviy pedagogik metodlar o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradigan usullar majmuasidir. Bunday metodlarda o'qituvchi bilim beruvchi emas balki ta'lim jarayonini tashkil etuvchi va yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi. O'quvchilar mustaqil izlanadi, muammolarni tahlil qiladi, o'z fikrlarini erkin bayon etadi va xulosalar chiqaradi.

Zamonaviy metodlarga bir necha metodlarni aytish mumkin.

- Aqliy hujum
- Klaster
- BBB
- Loyiha metodi
- Taqdimot
- Guruhlarda ishlash

"Aqliy hujum" metodi

"Aqliy hujum" metodida o'quvchilarga muammoli savollar beriladi va ular imkon qadar ko'proq fikr bildiradilar. Masalan, "Global iqlim o'zgarishining sabablari nimalardan iborat?" yoki "Cho'llanishning oldini olish uchun qanday choralar ko'rish mumkin?" kabi savollar o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi.

Ushbu metod:

- o'quvchilarning erkin fikrlashini rivojlantiradi;
- ijodkorlikni oshiradi;
- jamoadi ishlash ko'nikmasini shakllantiradi;
- muammolarni turli nuqtai nazardan tahlil qilishga o'rgatadi.

"Klaster" metodi

Klaster metodi mavzuning asosiy tushunchalarini tizimli ravishda tasvirlash imkonini beradi. Masalan, "Atmosfera" mavzusida markazga "Atmosfera" so'zi yozilib, undan tarkibi, qatlamlari, vazifalari, iqlim va ob-havoga ta'siri kabi yo'nalishlar ajratiladi.

Bu metod:

- mavzuni yaxlit tushunishga yordam beradi;

-tushunchalar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi;
-xotirani mustahkamlaydi.

"BBB" metodi

BBB metodi uch bosqichdan iborat:

- Bilaman** – o'quvchining avvalgi bilimlari aniqlanadi;
- Bilishni xohlayman** – yangi mavzu bo'yicha savollar shakllantiriladi;
- Bildim** – dars yakunida o'zlashtirilgan bilimlar umumlashtiriladi.

Mazkur metod o'quvchilarning o'z bilimini baholash va yangi bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishiga yordam beradi.

Loyiha metodi

Loyiha metodida o'quvchilar ma'lum bir geografik muammo yuzasidan mustaqil tadqiqot olib boradilar. Masalan:

- mahalliy daryolarning ekologik holatini o'rganish;
- hudud iqlimining o'zgarishini tahlil qilish;
- aholi yashash joylarining tabiiy sharoitlarini baholash.

Natijada o'quvchilar ilmiy izlanish olib borish, ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va taqdimot qilish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Zamonaviy ta'lim jarayonlarini olib borishda AKTdan ham ko'proq foydalanilmoqda. Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylandi. AKT vositalaridan foydalanish darsni qiziqarli, samarali va interfaol tashkil etishga xizmat qiladi. Tabiiy geografiya fanida AKT yordamida murakkab geografik hodisalarni visual ko'rinishda namoyish etish, o'quvchilarning mavzuni chuqurroq o'zlashtirishga imkon yaratadi.

AKT vositalari orqali o'quvchilar geografik xaritalar, statistik ma'lumotlar, videomateriallar, animatsiyalar va elektron darsliklardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa darsning sifatini oshirib, o'quvchilarning mustaqil izlanish faoliyatini rivojlantiradi.

AKTning tabiiy geografiya darslaridagi asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat.

- Darsning ko'rgazmalligini oshiradi;
- Murakkab tabiiy jarayonlarni tushunishni osonlashtiradi;
- o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi;
- mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- ta'lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etishga yordam beradi.

Zamonaviy metodlarning afzalliklari.

Tabiiy geografiya darslarida zamonaviy pedagogic metodlardan foydalanish quyidagi natijalarga erishishga yordam beradi:

- o'quvchilarning mustaqil fikrlashi rivojlanadi;
- ijodkorlik va tashabbuskorlik ortadi;
- darsga qiziqish kuchayadi;
- jamoada ishlash madaniyati shakllanadi;
- axborotni izlash va tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanadi;
- nazariy bilimlar amaliy faoliyat bilan bog'lanadi.
- Ta'lim sifati va samaradorligi oshadi.

Shu bilan birga zamonaviy metodlarni qo'llashda ayrim muammolar ham uchraydi.

Jumladan, barcha ta'lim muassasalarida moddiy texnik bazaning yetarli emasligi, internet tezligini pastligi yoki umuman mavjud emasligi ayrim o'qituvchilarning AKTdan foydalanish bo'yicha ko'nikmasining yo'qligi. Ushbu muammolarni bosqichma-bosqich bartaraf etish zamonaviy ta'limni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, tabiiy geografiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari(AKT), asosida o'qitish usullari o'quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi, ular mustaqil fikrlashga, muammolarini tahlil qilishga va amaliy yechimlar topishga o'rganadilar.

Zamonaviy metodlardan foydalanish natijasida o'quvchilarda geografik bilim, ko'nikma va kompetensiyalar yanada mustahkam shakllanadi. Shuningdek, ekologik madaniyat, tabiatga ongli munosabat, jamoada ishlash, axborotni izlash va tahlil qilish, ijodiy hamda tanqidiy fikrlash kabi muhim sifatlar rivojlanadi. Nazariy bilimlarning amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirilishi esa o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov,A (2018) Geografiya ta'limida innovatsion texnologiyalarni qo'llashning nazariy asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Jo'rayev, B. (2020). Tabiiy geografiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar. Samarqand: SamDU nashriyoti.

3. G'ulomova, M. (2019). Geografiya ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy axborotlari, №4.
4. Ahmadaliyev A., Qosimov A. Innovatsion faoliyat va ilg'or pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2011.-60 b.
5. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar
– Toshkent, 2008.-34b
6. A.Musurmanova ,Umumiy pedagogika
7. Tolipo'v.O',Usmonboyeva .M, "Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari"

